

RUBOIYLARDA OBRAZLAR TIZIMI

I.S. Mannopov

doktorant, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona.

S.O‘. Inomov

magistr, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

ANNOTATSIYA

Maqolada ruboiy janri takomili, mumtoz adabiyotdagi o‘rni haqida fikrlar bildirilgan. Mumtoz adabiyotda ijod qilib, ruboiy janrining go‘zal namunalarini yaratgan ijodkorlar to‘rtliklari tahlilga tortilgan. Ruboiylarning mazmuni ochib berilishga harakat qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: ruboiy, obraz, sintez, tezis, moddayi ruboiya, obraz yaratish uslubi, istilohiy ma‘no, lug‘aviy mazmun.

АННОТАЦИЯ

В статье высказываются мнения о развитии жанра рубаи, его роли в классической литературе. К анализу были привлечены четверки творцов, которые, работая в классической литературе, создали прекрасные образцы жанра рубаи. Было раскрыто содержание рубаи

Ключевые слова и фразы: рубаи, образ, синтез, тезис, субстанция рубаи, стиль создания образа, второстепенное значение, лексическое содержание

ANNOTATION

The article analyses opinions on the development of the rubai genre, its role in classical literature. Four creators were involved in the analysis, who, working in classical literature, created excellent examples of the rubai genre. The contents of the rubai were revealed.

Keywords and phrases: rubai, image, synthesis, thesis, rubai substance, style of rubai creation, secondary meaning, lexical content.

O‘zbek mumtoz she‘riyatida ruboiy janri ham ahamiyati va tarqalishi jihatdan g‘azaldan keyingi muhim o‘rinni egallaydi. Ruboiy arabcha “arba‘tun” – “to‘rtlik” so‘zidan olingan bo‘lib, to‘rt misradan iborat hamda aruzning hazaj bahrida yozilgan she‘rni anglatadi. Ruboiyda muayyan falsafiy, diniy, ishqiy, axloqiy yoki ta‘limiy-tarbiyaviy mavzu qamrab olinadi. Ruboiydagi to‘rt unsur har bir misrada aytilmoqchi

bo'lgan fikrning to'g'ri, badiiy jihatdan yuksak, kompozitsion jihatdan pishiq bo'lishini ta'minlaydi. Birinchi misra "tezis" deb ataladi va shoir nazarda tutgan fikrni o'rtaga tashlaydi. Ikkichi misra – "antitezis"da birinchisiga qarama-qarshi fikr aytiladi, biroq u tezisning isbotiga xizmat qiladi. Uchinchi misra "moddayi ruboiya" oxirgi misrada aytilishi kerak bo'lgan xulosa uchun ko'prik vazifasini o'taydi. To'rtinchi misra – "sintez"da avvalgi uch misradan xulosa chiqariladi, bu narsa shoirning asosiy g'oyasi sanaladi. "Ruboiy, to'rt misraga sig'dirilgan butun bir she'riyat dunyosi, insonning g'oyat xilma-xil va juda boy fikr-hislari, "qalb dialektikasi"ning ajoyib tarjimonidir" [1,77].

Ruboiy qofiyalanishga qarab ikki xil bo'ladi. Agar u a-a-b-a tarzida qofiyalansa xosiy ruboiy, a-a-a-a tarzida qofiyalansa taronai ruboiy deb yuritiladi.

Bugungi poeziyamizda ham ruboiylar ko'plab yaratilmoqda, "...inson hayotida, ichki kechinmalarida yuz bergan eng teran va keskin momentlardagi mulohaza va fikrlarni quyma satrlarda gavdalandirishi" [2,186] va uning falsafiy mohiyatini g'oyatda chuqur va qabariqli, ixcham va lo'nda aks ettirish hazaj bahridan keyingi yetakchi belgiga aylandi.

Dastlabki ruboiylarni fors shoirlari Abu Abdulloh Rudakiy va Shahidi Balxiylar yaratgan. Badriddin al-Qavomiy (XII asr) arab, fors va turk tillarida ruboiylar yaratgan. XI-XII asrlarda yashagan fors astronomi va matematigi Umar Xayyom ham ruboiynavislikni yuksak pog'onaga ko'targan. O'zbek adabiyotida esa Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ubaydiy, Abdulqodir Bedil, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Komil Xorazmiy kabi ijodkorlar ruboiy janri rivojiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Akademik shoir G'afur G'ulom Sharq mumtoz adabiyotining yetakchi janrlaridan biri bo'lmish ruboiyga ta'rif berib: "...olam-olam mazmunlarning javg'arini yig'ib, to'rt satrga sig'dira olish mahoratidir. Qatrada – ummon, uchqunda – quyosh mazmunini berish ruboiyga xos xususiyatdir", - deb yozgan edi. [3,412] Haqiqatan ham, hikmat va falsafa ruboiyning mag'zi bo'lganligi bois u jahon she'riyatining dovuqli janrlaridan biriga aylandi – hozirda dunyoning barcha burchagidan ruboiy muxlislarii topish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy mavzu Sharq adabiyotida hamisha yetakchi o'rinda turgan. Ma'lumki, pand-nasihatchi qancha ixcham va yorqin ifodalansa, shuncha ta'srichan va jozibador bo'ladi. Ayni jihatdan, ruboiy hikmatli so'zlar, falsafiy ma'noni anglatishda juda qo'l keladi: bu ixcham va lo'nda shakl barcha shoirlarga katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turli-tuman o'gitlarni she'rga singdirish imkoniyatini yaratadi. Jumladan, xojagon-naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniyni quyidagi ruboiysi shaklan sodda hamda tushunarli bo'lsa-da, mazmunan bir necha ma'no qatlamlariga egaligi bilan alohida ajralib turadi:

*Gar bir kishidan dilda shikoyat bo'lgay,
Dil og'rig'i undan benihoyat bo'lgay,
Hech o'ylanma intiqom olishni, chunki
Yomonga yomonligi kifoyat bo'lgay. [4,48]*

Bu ruboiyda, birinchidan, biror kishi sening ko'nglingni og'ritsa, bundan behad iztirob cheksang-da, sira undan o'ch olishni o'ylama, negaki yomonga yomonligining o'zi katta jazodir, deb nasihat qilinmoqda. Ikkinchidan, yomonning yomon bo'lib yaratilganligining o'zi unga bir umrga yetarlik jazodir. Harchand urinma, sen unga bundan yomonroq jazo berolmaysan, deb falsafiy xulosa chiqarilgan. Uchinchidan, yaxshilik va yomonlik, kuch va quvvat faqat Allohdir. Yomon yomonligini qilib, sening qalbingni ranjitibdimi, sen yaxshi bo'lsang yaxshiligingcha qol-da, yomonga tenglashma, ya'ni yomonlikka yomonlik bilan javob berishni o'ylama. Bu ikki jihatdan o'zini oqlamaydi: sen ham yomonga aylanasan hamda ilohiy amrlarga qarshi borasan. To'rtinchidan, adovat saqlash mo'minga xos amal emas, qasos olish – shaytonning ishi. Binobarin, birovdan o'ch olishga chog'langan kishi bir lahza bo'lsa-da, shaytonning vasvasasiga uchgan bo'ladi. Shayton vasvasasiga uchish esa iymonning sustligidan darak beradi. Beshinchidan, tasavvufda biron kimsani ranjitish, birovga jabr-u sitam yetkazish taomili yo'q. So'fiy har qancha qayg'u-azob bo'lsa, o'zi chekishi, barcha ta'na-malomatlariga sabr etishi, qahr-u g'azabini ichiga yutishi, odamlarga ochiq chehra bilan boqishi, muloyim muomala qilishi lozim. Oltinchidan, xalq orasida yaxshilikka yaxshilik – hammaning ishi, yomonlikka yaxshilik – mard kishining ishi, degan ulug' bir hikmat asrlar davomida yashab keladi. Demak, yomonlikka yomonlik bilan javob bergan kishining oddiy odamlardan fari yo'q, uning oliyhimmatlikni da'vo qilishga va o'zini barkamol inson deb hisoblashga haqqi yo'q. Nihoyat, yettinchidan, ruboiyning asl mazmun-mohiyati shundaki, yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarishni o'ylagan kishi tom ma'nodagi yaxshi inson emas, uning tabiatida qaysidir darajada yomonlik urug'lari mavjud va birovning yomonligi bahonasida u yuzaga qalqib chiqayapti. [4,3-5]

Yuqorida ta'rifi keltirilgan barcha xususiyatlar ruboiydagi obrazlarni ifoda etadi. Ruboiyda obrazlar tizimi deganda shoirning g'oyasini yetkazib berishda ifodlangan vositalar tushuniladi. Masalan, yuqorida keltirilgan ruboiydagi obrazlarga yaxshi va yomon inson kiradi. Ushbu obrazlar vositasida shoir kontrast (ziddiyat) yaratib, she'rga yuksak badiiy g'oya beradi.

Har bir ijodkorning o'z obraz yaratish uslubi va yo'sini mavjud bo'lganidek, Ogahiy ijodida ham ushbu o'ziga xosliklarni kuzatishimiz mumkin. 1999-yilda nashr etilgan "Ogahiy abadiyati" kitobida shunday jumalarni uchratamiz: "Ogahiyning harflar orqali ajoyib obrazlar yaratishi, misollar silsilasida musavvirona siymolar

tasvirlarini yaratish uning o'ta bilimdonligidan, so'z sehriga mas'uliyat bilan yondoshishidan, shaydolidan nishonadir". [5,45] Quyidagi ruboiysini esa oshiqlik masalasi haqida deyish mumkin:

*Har kimki tariqi ishq aro sodiq emas,
Oshiqlik oningdek kishiga loyiq emas,
Har nechaki cheksa tun-u kun fig'on,
Bilginki, jamoli yorg'a oshiq emas.*

ayni shu vaqtlarda yozilgan bo'lsa ajab emas. "Ilk devon"ni maxsus tadqiq etgan atoqli navoiyshunos Y. Is'hoqov, avvalo, ruboiyning yozilgan vaqti va joyini aniqlashga e'tibor qaratar ekan, "g'urbat" va "g'arib" so'zlariga asoslanib, quyidagilarni yozadi: "*She'rdagi "g'urbat" so'zidan ko'rinib turibdiki, bu she'rn*

Ogahiy ushbu ruboiy orqali chin oshiqga qo'yiladigan talablarga ishora qilib, agar bir kishi ishqida sodiq turmasa, unga vafo qila olmasa, bunday kishi oshiqlikka munosib emas. Agar u o'z ahvolidan, mahbubasi ozorlaridan nolisa, bundan oshkora oh cheksa, bunday kimsa chin oshiq emasligini aytadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, badiiy adabiyotdagi ijodiy ta'sirlanish yoki obrazlar, sujerlar o'xshashligi kabi masalalar bir ijodkor she'ridagi yondashuving mukammallashishiga, yangi adabiy qirralari ochilishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Yunusov. Barhayot an'analar, T., 1969.
2. Abduqodir Hayitmetov. Navoiy lirikasi, T., "Fan", 1961.
3. G'afur G'ulom. Asarlar. O'n jildlik.8-jild, T., 1976.
4. Ruboiy gulshani. Tuzuvchi: E. Ochilov. T., "O'zbekiston", 2010.
5. Ogahiy abadiyati. Tuzuvchilar: M. Pirnazarov, M.Safarboyev. T., "O'zbekiston", 1999.
6. S. Axmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). T., 2005.
7. Y.Is'hoqov. Alisher Navoiyning ilk lirikasi, T., 1965.
8. G'afur G'ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. 1-jild, T., 1971.
9. I. Haqqul. Mohiyatga tolib, ruhoniyatga oshiq (maqola). "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 33-soni, 2010.
10. Ogahiyga arg'umon. "Xorazm" nashriyoti, 2009-yil.